

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

SOBIROV SOBIR JO‘RAQULOVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI SFERIK JISMNING
GARMONIK VA NOTURG‘UN TEBRANISHLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro –2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Physical-
Mathematical Sciences**

Sobirov Sobir Jo‘raqulovich

Qovushqoq-elastik muhitdagi sferik jismning garmonik va noturg‘un
tebranishlari..... 3

Собиров Собир Журакулович

Гармонические и неустановившиеся колебания сферического тела в
вязкоупругой среде..... 21

Sobirov Sobir Juraqulovich

Harmonic and unsteady oscillations of a spherical body in a viscoelastic
medium..... 41

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published papers..... 45

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

SOBIROV SOBIR JO‘RAQULOVICH

**QOVUSHQOQ-ELASTIK MUHITDAGI SFERIK JISMNING
GARMONIK VA NOTURG‘UN TEBRANISHLARI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro –2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1312 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) universitet veb-saytida (www.bstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Ismoil Ibrohimovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mardonov Botir Mardonovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Raxmonov Bahodir Sobirovich
texnika fanlari doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi 2025 yil 18 oktabr kuni soat 09⁰⁰ da Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel./faks: (+99865) 223-78-84. e-mail: bstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida (391-raqam bilan ro'yxatga olingan) tanishish mumkin. Manzil: (200117 Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel./faks: (+99865) 223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 02 oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 14 avgustdagi № 5 raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signatures in blue ink]

M.X. Tshaev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
fizika-matematika fanlari doktori (DSc)

R.A. Sabirova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, fizika-matematika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fizika-
matematika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda konstruksiyalarni buzmasdan dinamik xususiyatlarini o'rganish orqali sinovdan o'tkazish, tibbiy diagnostika, yer osti muhandislik inshootlarining zilzila bardoshlilikiga bilan bog'liq muammolar va boshqa bir qator dolzarb zamonaviy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, amaliyotda qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Dunyo miqyosida seysmik faolligi yuqori bo'lgan hududlarda barpo etilayotgan inshootlar va konstruksiyalarning mustahkamligini ta'minlashda barcha garmonik va noturg'un to'lqinlar ta'sirida hosil bo'ladigan dinamik yuklanishlarni hisobga olib, mukammal zamonaviy hisoblash usullarini takomillashtirib amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan deformatsiyalanuvchi muhitda joylashgan sfera shaklidagi jismlarning tebranish xususiyatlarini o'rganish asosida xos chastotalarini topish va rezonans holatlariga baho berish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yer usti va yer osti inshootlarining zilzilabardoshlilikiga sohasida qo'llaniladigan kompozit materiallarning, shu jumladan ko'p qatlamli murakkab tarkibga va fizik xossalarga ega bo'lgan muhitlarda va sferik konstruksiyalarning mustahkamligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada materiallarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olib, dinamik masalalar yechish borasida, sezilarli natijalarga erishildi, xususan, inshootlarning zilzilabardoshlilikini oshirishda qovushqoq-elastik va gruntli muhitda garmonik va noturg'un to'lqinlar tarqalishi natijasida hosil bo'ladigan kuchlanishlarni hisobga olib, konstruksiyalarning dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda to'lqin tarqalish jarayonida hosil bo'ladigan tebranishlarning salbiy ta'sirini kamaytirib, mexanizm va konstruksiyalarning mustahkamligini oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, fizik-mexanik xususiyatli konstruksion materiallar uchun zamonaviy texnika va texnologiyalar keng qo'llanilayotgani sababli muhit bilan ta'sirda bo'lgan sferik qovushqoq-elastik qobiqlarda to'lqin tarqalishi xususiyatlarini o'rganish metodikasini yaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli "O'zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹gi Farmoni bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, mazkur tadqiqot yo'nalishida ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"²gi Qarori, 2024-yil 17-apreldagi PQ-161-sonli "Bino va inshootlarning zilzilaga bardoshlilikini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-son "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"³gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika" hamda XIV. "Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Deformatsiyalanuvchan muhitda joylashgan jismlarga to'liq ta'siri va dinamik kuchlanganlik – deformatsiyasi muammosini ilmiy nuqtai - nazardan taniqli xorijiy davlat olimlari A.A.Ilyushin, L.A.Molotkov, Y.I.Novichkov, G.I.Petrashen, V.P.Matveenkov, A.G.Gorshkov, Y.I.Shemyakin, A.N.Guz, I.Y.Troyanovskiy, I.A.Kiyko, N.S.Bulichev, F.S.Balson, V.T.Grinenko, I.N.Shardakov, E.I.Starovoytov, G.Kolskiy, R.M.Davis, J.A.Wayt, T.Miker, A.Maytsler, J.D.Ahenbah, B.V.Shafer, R.I.San, N.N.Fotieva, J.S.Yerjanov, Sh.M.Aytaliev, I.Y.Dorman, G.I.Oganesov, va boshqa ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan yer osti inshootlarining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini o'rganish va baholash bo'yicha X.A.Raxmatulin, M.T.O'rozboev, V.K.Kabulov, T.R.Rashidov, T.Sh.Shirinqulov, G.X.Xojmetov, Y.N.Muborakov, M.M.Mirsaidov, B.M.Mardonov, K.S.Sultonov, Sh.M.Mamatqulov, F.B.Badalov, I.Mirzayev, T.M.Mavlonov, Sh.S.Yuldashev, A.Abdusattorov, X.Sagdiyev, I.I.Safarov, M.X.Teshaev, S.Abdugodirov, X.Xudoynazarov, M.K.Usarov va boshqa ko'plab mutaxassislar muhit bilan aloqada bo'lgan plastinkasimon, silindrik yoki sferik ko'rinishdagi jismlarda to'liq yuklanishi masalalarini (materiallarning reologik xususiyatlarini hisobga olmagan holda) hisoblash usullarini rivojlantirishga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shishgan.

Hozirgi vaqtda muhit va yer ostida joylashgan inshootlarning qovushqoqlik xususiyatlarini hisobga olgan holda dinamik xususiyatlari hamda to'liq yuklanishi ta'sirida hosil bo'ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholash uslublari to'la o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universitetida 2024 – 2029-yillarda bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Matematikaning ilmiy va amaliy muammolari" mavzusidagi ilmiy-texnikaviy dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qovushqoq-elastik muhit bilan kontaktda bo'lgan sferik jismning tashqi yuklanish ta'siridagi garmonik va noturg'un tebranishlari, hamda qovushqoq-elastik muhitda hosil bo'ladigan dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholashga qaratilgan hisoblash metodikasi, algoritmini ishlab chiqish hamda sonli natijalar olib tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovushqoq-elastik ko'p qatlamli sferik jismning erkin so'nuvchi tebranishlarida energiya dissipatsiyasiga baho berish metodikasi va algoritmini ishlab chiqish. Ishlab

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 17- apreldagi PQ-161-sonli "Bino va inshootlarning zilzilaga bardoshlilikini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

chiqilgan usul bilan qovushqoq–elastik muhitdagi sferik jism dinamik holatini baholash;

qovushqoq-elastik muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lgan deformatsiyalanuvchi sferik jismga garmonik yuklanish ta’sirida hosil bo‘ladigan dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholashga qaratilgan hisoblash metodikasi va algoritmini ishlab chiqish;

qovushqoq-elastik muhitda joylashgan deformatsiyalanadigan sferik qobiqning nostatsionar yuklanish ta’sirida hosil bo‘ladigan dinamik kuchlanishlarni geometrik va fizik-mexanik parametrlarga bog‘liq o‘zgarishini solishtirma baholash;

qovushqoq-elastik ko‘p qatlamli sferik jismning tebranishlari so‘nish koeffitsiyentiga va xos chastotalariga solishtirma baho berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qovushqoq-elastik muhit bilan kontaktda bo‘lgan deformatsiyalanuvchi sferik jism olingan.

Tadqiqotning predmeti qovushqoq-elastik muhit bilan to‘liq kontaktda bo‘lgan deformatsiyalanuvchi sferik jismlarga garmonik (yoki noturg‘un) to‘lqin yuklanish ta’sirida hosil bo‘lgan kuchlanganlik - deformatsiyalanganlik holati hamda dinamik xarakteristikalarini aniqlash jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi va qurilish mexanikasi usullaridan, hisoblash matematikasi, matematik modellashirish, dasturlash usullari, xususiyl hosilali integro-differensial tenglamalarni yechish uchun “muzlatish”, o‘zgaruvchilarni ajratish, Gauss va Laplas usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta qovushqoq-elastik muhitdagi sferik jismning radial, buralish va sferoidal so‘nuvchi xos tebranishlarini o‘rganish metodikasi va algoritmi Bessel va Xankelning kompleks argumentli maxsus sferik funksiyalari hamda Lejandrning ko‘phadiga asoslanib ishlab chiqilgan;

radial va buralish tebranishlarda Koltunov-Rjanitsin yadrosining parametrlari (α, β) ning kompleks chastota haqiqiy va mavhum qismlariga ta’siri polimer materiallar uchun 1-2% bo‘lishi, yadro amplitudasi A ning ta’siri esa 3-5% bo‘lishi ishlab chiqilgan metodika va algoritm asosida topilgan;

sferoidal tebranishlarda kompleks chastotaning mavhum qismi qatlam radiuslari nisbati $r_2^* = 0.945$ bo‘lganda tebranishlarning so‘nish koeffitsiyentining eng katta bo‘lishi ($\omega_{im} = -13.24 \cdot 10^{-3}$) parametrik tahlil asosida aniqlangan;

qovushqoq-elastik muhitda joylashgan deformatsiyalanuvchan sferik qobiqqa statsionar bo‘lmagan pog‘onali noturg‘un kuch yuklanganda maksimal zo‘riqishlar vaqtning boshlang‘ich qiymatlaridan kechikib ($t^g > 1.0$) o‘zining maksimal qiymatga erishishi va keyinchalik 10 - 15% gacha kamayib, asimptota chizig‘iga yaqinlashib borishi ishlab chiqilgan metodika va algoritmini qo‘llash asosida topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qovushqoq-elastik muhit bilan o‘zaro kontaktda bo‘lgan deformatsiyalanuvchi sferik jismning tashqi yuklanish ta’siridagi dinamik kuchlanganlik deformatsiya holatiga uni o‘rab turuvchi muhitning reologik xossalarini hisobga olgan holda baho berilgan;

garmonik (yoki noturg‘un) yuklanishlar ta’sirida bo‘lgan deformatsiyalanuvchi sferik jismda hosil bo‘ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini

o'rganishda yuklanish amplitudasiga solishtirma baho berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chegaraviy shartlarning korrekt qo'yilishi, keltirib chiqarilgan matematik ifodalarning qat'iyligi, asoslangan yechish usullaridan tizimli foydalanilganligi, yechimlarning aniqligini baholashda boshqa tadqiqotchilar yechimlari bilan taqqoslanganligi va ularning natijalariga mos tushganligi hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati deformatsiyalanuvchan muhit bilan o'zaro kontaktda bo'lgan deformatsiyalanuvchi sferik jism va uni o'rab turuvchi muhitda hosil bo'ladigan to'lqin dinamikasi nazariyasining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shish hamda takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuklanishlar ta'sirida muhitda va deformatsiyalanuvchi sferik jismda hosil bo'ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini baholashning yangi qonuniyatlarini o'rganishga imkoniyat berishi hamda ishlab chiqilgan usul va hisoblash dasturlari amaliy masalalarini yechishga va tadqiq qilishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dinamik kuchlar ta'sirida elastik va qovushqoq-elastik muhitda joylashgan deformatsiyalanuvchi sferik jismning dinamik kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini hisoblash usullari tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qovushqoq-elastik kompozit quvurlarda dinamik yuk ta'sirida hosil bo'ladigan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash metodikasi va algoritmidan Buxoro davlat texnika universitetida 2012-2016-yillarda olib borilgan F4-14 raqamli "Suyuqlik oquvchi yer osti egri chiziqli quvurning dinamik kuchlar ta'siridagi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini tadqiq qilish nazariyasini rivojlantirish va hisoblash usullarini ishlab chiqish" fundamental loyihada foydalanilgan (Buxoro davlat texnika universitetining 2025-yil 2-iyuldagi 845-sonli ma'lumotnoma). Natijada, ko'p qatlamli polimer quvurlar mustahkamligini baholash kriteriyasini topishga imkon bergan;

dissertatsiyada ishlab chiqilgan xos son va unga mos tebranish formalarini topish metodikasidan Toshkent kimyo-texnologiya institutida 2016-2020-yillarda bajarilgan OT-F4-01 "Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo'laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o'rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish" mavzusidagi fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya instituti 2025-yil 21-maydagi 1/01-1821-sonli ma'lumotnoma). Natijada, qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastik muhitdagi sferik jismga garmonik va noturg‘un yuklanishlar ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili, masalalarning qo‘yilishi va yechish metodikasi”** deb nomlangan birinchi bobida muhit bilan aloqada bo‘lgan qovushqoq-elastik sferik qobiqqa garmonik (yoki noturg‘un) to‘lqin yuklanishi natijasida hosil bo‘ladigan dinamik jarayonlarning holatini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili keltirilgan. Adabiyotlar tahlili asosida xulosalar qilingan. To‘lqin dinamikasining qo‘llanilayotgan usullari va masalalari, asosan, elastik muhitdagi absolyut qattiq sferik jism va sferik bo‘shliq uchun o‘rganilgan. Bir qator hollarda, muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lgan inshootlarda garmonik to‘lqin ta’sirida hosil bo‘ladigan rezonans holatlarni hisoblashda muhitning va sferik inshootning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olmaslik katta xatoliklarga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan. Qovushqoq-elastik muhit bilan kontaktda bo‘lgan sferik jismga noturg‘un to‘lqin yuklanganda hosil bo‘ladigan dinamik jarayonlar ham to‘liq o‘rganilmagan, degan xulosalar qilingan. Sferik jismning va muhitning qovushqoq-elastik xususiyatlarini hisobga olib, sferik jismdagi garmonik va turg‘un bo‘lmagan to‘lqin difraksiya masalalarini o‘rganish metodikasi va algoritmi yaratilmagan. Bulardan tashqari, birinchi bobning uchinchi paragrafida qovushqoq-elastik muhitdagi sferik jismga garmonik va noturg‘un to‘lqinlar ta’siri masalasining qo‘yilishi, yechish metodikasi va algoritmi ham keltirilgan. Qovushqoq-elastik sferik jism va uni o‘rab turuvchi muhitning harakat differensial tenglamasi vektor ko‘rinishda quyidagicha bo‘ladi:

$$(\tilde{\lambda}_j + 2\tilde{\mu}_j)\text{graddiv}\vec{u} - \tilde{\mu}_j\text{rotrot}\vec{u} = \rho_j \frac{\partial^2 \vec{u}}{\partial t^2}, j=1,2 \quad (1)$$

bunda

$$\tilde{\lambda}_j \varphi(t) = \lambda_{0j} \left[\varphi(t) - \int_0^t R_{\lambda j}(t - \tau) \varphi(\tau) d\tau \right]; \tilde{\mu}_j \varphi(t) = \mu_{0j} \left[\varphi(t) - \int_0^t R_{\mu j}(t - \tau) \varphi(\tau) d\tau \right], \quad (2)$$

$\tilde{\lambda}_j$ va $\tilde{\mu}_j$ - operator formadagi elastiklik modullari, $\varphi(t)$ - vaqtning ixtiyoriy funksiyasi; ρ_j - zichlik, $R_{\lambda j}(t - \tau)$ va $R_{\mu j}(t - \tau)$ - relaksatsiya yadrolari va λ_{0j}, μ_{0j} - oniy elastiklik modullari.


Agar $j=1$ bo‘lsa, (1) xususiy hosilali integro-differensial tenglama sferik jismni o‘rab turgan muhit tenglamasini ifodalaydi, $j=2$ bo‘lsa, sferik jism tenglamasini ifodalaydi. Muhit va sferik jism orasida qattiq mahkamlanganlik sharti qo‘yiladi:

$$\sigma_{rr}^{(1)} = \sigma_{rr}^{(2)}, \sigma_{r\theta}^{(1)} = \sigma_{r\theta}^{(2)}, \sigma_{r\phi}^{(1)} = \sigma_{r\phi}^{(2)}, u_r^{(1)} = u_r^{(2)}, u_\theta^{(1)} = u_\theta^{(2)}, u_\phi^{(1)} = u_\phi^{(2)}. \quad (3)$$

Yoki sirpanuvchanlik sharti qo‘yiladi

$$\begin{aligned} \sigma_{rr}^{(1)} &= \sigma_{rr}^{(2)}, u_r^{(1)} = u_r^{(2)}, \\ \sigma_{r\theta}^{(1)} &= \sigma_{r\theta}^{(2)} = \sigma_{r\phi}^{(1)} = \sigma_{r\phi}^{(2)} = 0. \end{aligned} \quad (4)$$

Cheksizlikda Zommerfeldning to‘lqin yutilish sharti qo‘yiladi. Kontakt shartlaridan tashqari boshlang‘ich shartlar ham qo‘yiladi:



1-rasm. Sferik jismning hisob sxemasi

$$\vec{u}_j \Big|_{r=0} = 0, \frac{\partial \vec{u}_j}{\partial t} \Big|_{t=0} = 0. \quad (5)$$

Bu yerda $\sigma_{rj}, \sigma_{\theta j}, \sigma_{\varphi j}, \tau_{\theta rj}, \tau_{r\varphi j}, \tau_{\theta\varphi j}$ – kuchlanishlar tenzorining komponentlari, $u_{rj}, u_{\theta j}, u_{\varphi j}$ – ko‘chish vektorining komponentlari, ρ_j – materiallar zichligi.

Sferik koordinatalar sistemasi (r, θ, φ) 1-rasmda tasvirlangan. Qo‘yilgan masalalar sferik koordinatalar sistemasida yechiladi:

$$x = r \sin \theta \cos \varphi; y = r \sin \theta \sin \varphi; z = r \cos \theta. \quad (6)$$

Agar cheksiz muhitda sferik jism berilgan bo‘lsa, undan $r = p_0$ chegarada $p(t) = p_0 e^{-i\omega t}$ ($-\infty < t < \infty$) davriy kuch qo‘yilgan bo‘lsin. Bu yerda p_0 – tashqi davriy kuchning amplitudasi, $\omega = \nu$ – haqiqiy son, tashqi kuch chastotasi. Qovushqoq-elastik muhitda joylashgan sferik jismga ta‘sir etuvchi garmonik ko‘rinishdagi yuklanish quyidagicha bo‘ladi:

$$\varphi^p = A_p \sum_{n=0}^{\infty} a_n j_n(\alpha_1 r) P_n^m(\mu) e^{-i\omega t}. \quad (7)$$

Bunda A_p – tushuvchi bo‘ylama to‘lqin amplitudasi; $\alpha = \omega/c_{p1}$ – to‘lqin soni; ω – aylanma chastota; c_{p1} – bo‘ylama to‘lqin tezligi; c_{s1} – ko‘ndalang to‘lqin tezligi. Tushuvchi noturg‘un to‘lqin quyidagi Xevisayd funksiyasi sifatida olingan:

$$\varphi_p = 0.5(t + z - 1)H(t + z - 1), \psi_p = 0. \quad (8)$$

Qo‘yilgan masalalarni yechishda yuqoridagi munosabatlardan foydalanib turli chegaraviy shartlar va tushuvchi to‘lqin potenciallari uchun masalani qo‘yish mumkin.

(1) xususiy hosilali integro-differensial tenglamani ko‘chish potenciallarini kiritish orqali yechamiz. Ko‘chish vektorini Grin tasvirlagan formada olamiz. U holda quyidagicha bo‘ladi:

$$\vec{u}_j = \text{grad} \varphi_j + \text{rot}(\vec{\psi}_j), \text{div} \vec{\psi}_j = 0 (j = 1, 2) \quad (9)$$

Bu yerda φ_j va $\vec{\psi}_j(0, \psi_j, \chi_j)$ – mos ravishda bo‘ylama va ko‘ndalang to‘lqin potenciallari.

Agar (9) ni (1) ga qo‘ysak, ko‘chish potenciallari uchun quyidagi xususiy hosilali integro-differensial tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\nabla^2 \varphi_j - \int_T^t [R_{\lambda j}(t - \tau) + 2R_{\mu j}(t - \tau)] \nabla^2 \varphi_j d\tau = \frac{1}{c_{0pj}^2} \frac{\partial^2 \varphi_j}{\partial t^2}; \quad (10)$$

$$\nabla^2 \vec{\psi}_j - \int_T^t R_{\mu j}(t - \tau) \nabla^2 \vec{\psi}_j d\tau = \frac{1}{c_{0sj}^2} \frac{\partial^2 \vec{\psi}_j}{\partial t^2},$$

bu yerda T – sferik jismning garmonik yoki turg'un harakati uchun $-\infty$ olinadi, agar sferik jismga noturg'un to'liqin tushsa, u holda integral chegarasi yoki T -nolga teng deb olinadi; $c_{0pj}^2 = (\lambda_{j0} + 2\mu_{j0})/\rho_j$, $c_{0sj}^2 = \mu_{j0}/\rho_j$, $j=1,2$ – mos ravishda oniy bo'ylama va ko'ndalang to'liqin potentsiallari.

Faraz qilaylik, qovushqoq-elastik muhitda joylashgan sferik jismga garmonik (7) to'liqin tushsin. U holda vaqt oralig'ida $-\infty < t < \infty$ bo'ladi, deb olinadi. U holda (10) xususiy hosilali integro-differensial tenglamalarning yechimlarini quyidagi shaklda izlaymiz:

$$\phi_j(\theta, \varphi, r, t) = \sum_{k=1}^{\infty} \Phi_{jk}(\theta, \varphi, r) e^{i\omega t}; \quad \vec{\psi}_j(\theta, \varphi, r, t) = \sum_{k=1}^{\infty} \vec{\Psi}_{jk}(\theta, \varphi, r) e^{i\omega t}, \quad (11)$$

bu yerda $\Phi_{jk}(\theta, \varphi, r)$ va $\vec{\Psi}_{jk}(\theta, \varphi, r)$ – tenglamalarni qanoatlantiradigan kompleks argumentli funksiyalar, $\omega = r$ – tashqi ta'sir etuvchi to'liqin chastotasi, haqiqiy kattalik.

$$\nabla^2 \Phi_{jk} + \alpha_{Lj}^2 \Phi_{jk} = 0; \quad \nabla^2 \vec{\Psi}_{jk} + \beta_{Mj}^2 \vec{\Psi}_{jk} = 0, \quad (12)$$

bunda

$$\alpha_{Lj}^2 = \frac{\alpha_j^2}{1 - L_j}, \quad \beta_{Mj}^2 = \frac{\beta_j^2}{1 - M_j}, \quad \alpha_j^2 = \frac{\omega^2}{c_{0pj}^2}, \quad \beta_j^2 = \frac{\omega^2}{c_{0sj}^2}$$

$$L_j = \int_0^{\infty} [R_{\lambda}(\xi) + 2R_{\mu}(\xi)] \exp(-i\omega\xi) d\xi,$$

$$M_j = \int_0^{\infty} R_{\mu}(\xi) \exp(-i\omega\xi) d\xi. \quad (13)$$

Noturg'un to'liqinlar sferik jismga tushganda qo'yilgan masalani yechish uchun vaqt bo'yicha Laplasning integral almashtirishi qo'llaniladi ($0 < t < T_1$),

$$f^L(s) = \int_0^{\infty} e^{-st} f(t) dt = L[f(t)].$$

Teskari almashtirish, ya'ni originalni topish uchun ($f^L(s)$ – tasvir, $f(t)$ – original) quyidagi integral orqali amalga oshiriladi:

$$f(t) = \frac{1}{2\pi i} \int_{\gamma - i\infty}^{\gamma + i\infty} e^{st} f^L(s) ds = L^{-1}[f^L(s)].$$

Integral maxsus nuqtadan o'ng tomonda joylashgan yo'l bo'yicha olinadi.

Gelmgols (12) tenglamasining yechimi umumiy holda quyidagicha bo'ladi:

$$\Phi_j = \sum_{n=0}^{\infty} \sum_{m=n}^n A_{mnj} h_n(k_{pj}r) P_n^m(\cos \theta) \exp(im\varphi);$$

$$\Psi_{1j} = \sum_{n=0}^{\infty} \sum_{m=n}^n B_{mnj} h_n(k_{sj}r) P_n^m(\cos \theta) \exp(im\varphi);$$

$$\Psi_{2j} = \sum_{n=0}^{\infty} \sum_{m=n}^n C_{mnj} h_n(k_{sj}r) P_n^m(\cos \theta) \exp(im\varphi), \quad (14)$$

bunda $P_n^m(\mu)$ – Lejandrning birinchi tartibli n - darajali va m - tartibli qo'shma funksiyasi:

$$h_n^{(1)}(z) = j_n(z) + iy_n(z) = \sqrt{\frac{\pi}{2z}} h_{n+1/2}^{(1)}(z), \quad h_n^{(2)}(z) = j_n(z) - iy_n(z) = \sqrt{\frac{\pi}{2z}} h_{n+1/2}^{(2)}(z).$$

Quyidagi juft qilib olingan funksiyalar $j_n(z), y_n(z)$ va $h_n^{(1)}(z), h_n^{(2)}(z)$ o‘zaro chiziqli bog‘liq bo‘lmagan funksiyalar hisoblanadi. Sferik shakldagi to‘lqin tenglamalarini integrallagandan so‘ng hosil bo‘lgan integral doimiylari $A_{mn1}, B_{mn1}, C_{mn1}, A_{mn2}, B_{mn2}, C_{mn2}$ ko‘effitsiyentlar ko‘rinishida yuqorida keltirilgan va ular chegaraviy shartlar (2) dan topiladi. U holda olti noma‘lumli oltita tenglamalardan iborat bo‘lgan bir jinsli bo‘lmagan algebraik tenglamalar sistemasini olamiz. Ko‘rinib turibdiki, bir jinsli bo‘lmagan algebraik tenglamalar sistemasi chiziqli bo‘lib, elementlari kompleks kattalik bo‘ladi. Yuqoridagi tenglamalar sistemasining oltita qator va oltita ustundan tashkil topgan kvadrat matritsaning determinanti elementlari Lejandr hamda kompleks argumentli Bessel va Xankel funksiyalaridan iborat:

$$[C_2(c_{pj}, c_{sj}, R_{Ej}, a_j)]\{q\} = \{p\}, \quad (15)$$

bunda $\{q\}$ – ustun vektor bo‘lib, ixtiyoriy o‘zgaruvchilardan tashkil topgan, $\{p\}$ - tashqi tushadigan to‘lqin ta‘sirini ifodalovchi ustun vektor; $[C]$ – kvadrat matritsa.

(15) kompleks ko‘effitsiyentli algebraik tenglamalar sistemasi Gaussning o‘zgaruvchilarni ketma-ket yo‘qotish usuli yordamida dissertatsiyada ishlab chiqilgan algoritm bilan yechilgan. Agar tashqi tushuvchi to‘lqin hisobga olinmasa, u holda qovushqoq-elastik muhitda joylashgan sferik jismning erkin tebranishlar chastotalari topiladi. Bu holda (15) murakkab ko‘rinishdagi kompleks transendent funksiyalardan tashkil topgan algebraik tenglamani beradi. Buni esa faqat sonli usullar yordamida yechish mumkin. (15) tenglamani yechishda har bir iteratsiyada Gauss usuli qo‘llaniladi. Shuning uchun aniqlovchini ko‘phad ko‘rinishida ifodalash talab etilmaydi. Kompleks ildizlarni topishda Myuller usulida yuqori katta aniqlikda topiladi va tez yaqinlashish ta‘minlanadi.

Dissertatsiya ishida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining xususiy hosilali integro-differensial tenglamalarni yechish uchun muzlatish, o‘zgaruvchilarni ajratish, Laplas, Myuller va Gauss usullari qo‘llangan. Matlab dasturi asosida sonli natijalar olingan.

Shunday qilib, bu bobda adabiyotlar tahlili, masalaning qo‘yilishi va yechishning umumiy algoritmi keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ko‘p qatlamli qovushqoq-elastik sferik qobiqning xos(erkin) tebranishlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida ikki qatlamli sferik qobiqning erkin tebranishlari masalasi qaralgan. U holda qovushqoq-elastik sferik jismning xos (erkin) tebranishlari masalasi dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan holatlar uchun masalalar yechilgan. Erkin tebranishlar masalalari tenglamalarda inersion hadlar materiallarning harakatini to‘liq ifodalaydigan masalalar sinfiga kiradi. Buning uchun chegaraviy shartlar barcha tashqi kuchlar ishining nolga tengligiga mos kelishi kerak. Bundan tashqari, massa kuchlari bir xil tarzda nolga teng, deb hisoblanishi kerak. Materiallarning qovushqoq-elastik xossalarini hisobga olgan holda, qatlamli sferik qobiqning erkin tebranishlari masalalarini ham kompleks algebra fani doirasida yechish mumkin. Cheksiz qovushqoq-elastik muhit bilan o‘zaro ta‘sirida bo‘lgan ko‘p qatlamli deformatsiyalanuvchi sferik jismning xos tebranishlari masalalarini xususiy holda radial, buralish va sferoidal xos tebranishlarini ko‘ramiz. Chastota tenglamasini olish uchun (3) dan foydalanamiz.

1. Radial tebranishlar. Agar bir qatlamli sferik jismni qovushqoq elastik muhitdagi radial tebranishlarini ko‘rsak, u holda kompleks chastotani topish uchun olingan transendent tenglama quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$(1 - z_{p1}z_{sp1}z_{\omega}ctg(z_{p1}z_{sp1}z_{\omega})) \left[z_{\omega}^2 + 4\left(\frac{1}{z_{\mu 1}} - 1\right)(1 + iz_{sp1}z_{\omega}) \right] = \frac{z_{\omega}}{z_{\rho 1}}(1 + iz_{sp1}z_{\omega}), \quad (16)$$

bunda $z_{\omega} = \omega R/c_{s2}$ – o‘lchamsiz chastota; $z_{s1} = ((c_{s2}\sqrt{\Gamma_{sk2}})/(\sqrt{\Gamma_{sk1}c_{s1}}))$; $z_{\mu 1} = \bar{\mu}_2/\bar{\mu}_1 = \rho z_{s1}$; $z_{p1} = c_{p2}/c_{p1}$; $z_{\rho 1} = \rho_2/\rho_1$. Bu (16) tenglama sonli usul (Myuller) yordamida yechiladi. (16)ning yechimlari $z_{\omega k} = z_{\omega Rk} + iz_{\omega Ik}$, ($k = 1, 2, \dots$) kompleks yoki mavhum kattalik bo‘ladi. Uning haqiqiy qismi $z_{\omega R}$ tebranishlar chastotasini, mavhum qismi $z_{\omega I}$ esa tebranishlarni dempfirlashni ifodalaydi. Agar sharning radial tebranishi ($z_{\mu} \rightarrow 0$) va qovushqoq-elastik muhitdagi sferik $z_{\mu} \rightarrow \infty$ bo‘shliq olinsa, u holda quyidagi tenglamalarni olamiz:

$$4z_{sp1}^2(1 - z_{\omega}ctg(z_{\omega})) - z_{\omega}^2 = 0, \quad z_{\omega}^2 - 4iz_{\omega} - 4 = 0. \quad (17)$$

Bu tenglamalarning birinchisi sonli, ya’ni Myuller usuli bilan yechiladi. Ikkinchi tenglamasi esa mavhum koeffitsiyentli kvadrat tenglamani ifodalaydi va uning ildizi karrali bo‘lib mavhum kattalikka $z_{\omega 1,2} = 2i$ teng bo‘ladi. Bu esa aperiodik so‘nuvchi tebranishni ifoda qiladi.

2. Buralish tebranishi. Buralish tebranishda ($u_r = 0$) bo‘ladi va $div \vec{u}$ ham hisobga olinmaydi. Buralish tebranish masalasini qo‘yishda urinma ko‘chishlar va urinma kuchlanishlarning tenglik sharti chegarada qo‘yiladi:

$$\begin{aligned} C_{mn1} &= hj_{k1}C_{mn2}; \quad C_{mn1} = M\mu 1_{k1}C_{mn2} \\ hj_{k1} &= j_n(k_{s2}R)/h_n(k_{s1}R), \\ M\mu 1_{k1} &= \mu_2 \left[\frac{(n-1)j(k_{s2}R) - (k_{s2}R)j_{n+1}(k_{s2}R)}{-(k_{s1}R)h_{n+1}(k_{s1}R)} \right] / \left[\frac{(n-1)h_n(k_{s1}R) - (k_{s1}R)h_{n+1}(k_{s1}R)}{-(k_{s1}R)h_{n+1}(k_{s1}R)} \right]. \end{aligned} \quad (18)$$

Yuqoridagi (18) bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasidagi ixtiyoriy o‘zgaruvchilarni tenglashtirib, kompleks chastotalarni topish uchun transcendent tenglama olamiz (yoki bir jinsli algebraik tenglama hosil qilib, asosiy aniqlovchisini nol deb trivial bo‘lmagan yechim olinadi:


$$z_{\mu} - \frac{n-1-G_i(z_s)}{n-1-G_h(z_{\omega})} = 0, \quad (19)$$

bunda

$$G_i(t) = tj_{n+1}(t)/j_n(t), \quad G_h(t) = th_{n+1}(t)/h_n(t).$$

Agar $z_{\mu} \rightarrow 0$, bo‘lsa, u holda sferaning buralma tebranish chastotasi tenglamasini olamiz:

$$n - 1 - G_i(z_s) = 0. \quad (20)$$



2-rasm. O‘lchamsiz α parametr va chastotaning $\omega_l = \omega_l 10^{-2}$ mavhum qismini $\beta = c_{s1}/c_{p1}$ parametrغا bog‘liq o‘zgarishi

Agar $z_\mu \rightarrow \infty$ bo'lsa, deformatsiyalanuvchi muhitdagi sferik bo'shliqning buralish tebranishlar chastotasini topish mumkin bo'ladi.

3. Sferoidal tebranishlar. Bunday tebranishlarni ifodalovchi transsendent tenglama (chastota tenglamasi)ni olish uchun ko'chishning radial komponentasini nolga teng bo'lishi kerak bo'ladi. Ikki va uch qatlamli sharsimon qobiqning tebranishlariga qovushqoqlik va fizik-mexanik parametrlar ta'sirini ko'rib chiqamiz. O'lchamsiz α parametr va chastotaning mavhum qismining $\beta = c_{s1}/c_{p1}$ parametrغا bog'liq o'zgarishi sferoidal tebranish uchun 2-rasmda keltirilgan. Natijalar n ning 1,2,3 qiymatlari uchun olingan. Rasmda tutash chiziq (yoki uzluksiz chiziq) o'lchamsiz α parametr belgilangan, punktir chiziq bilan xos chastotaning mavhum qismi ko'rsatilgan.

Ko'p qatlamli qovushqoq elastik sferik qobiqning radial tebranishlaridagi differensial tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} \frac{\partial \sigma_{rn}}{\partial r} + 2 \frac{\sigma_{rn} - \sigma_{\phi n}}{r} &= \rho \frac{\partial^2 u_n}{\partial t^2}, \\ \sigma_{rn} &= (\bar{\lambda}_n + 2\bar{\mu}_n) \frac{\partial u_n}{\partial r} + 2\bar{\lambda}_n \frac{\bar{u}_n}{r}, \\ \sigma_{\phi n} &= 2(\bar{\lambda}_n + \bar{\mu}_n) \frac{\bar{u}_n}{r} + \bar{\lambda}_n \frac{\partial \bar{u}_n}{\partial r}, R_n < r < R_{n+1}, \\ \sigma_{r1}(R_1) &= \sigma_{rN}(R_N) = 0, n = 1, 2, \dots, N. \end{aligned} \quad (21)$$

$$\bar{\lambda}_n = \lambda_{0n} \left[1 - \Gamma_{\lambda n}^c(\omega_{Re}) - i\Gamma_{\lambda n}^s(\omega_{Re}) \right], \bar{\mu}_n = \mu_{0n} \left[1 - \Gamma_{\mu n}^c(\omega_{Re}) - i\Gamma_{\mu n}^s(\omega_{Re}) \right]$$

$$\Gamma_{\lambda n}^c(\omega_{Re}) = \int_0^\infty R_{\lambda n}(\tau) \cos(\omega_{Re} \tau) d\tau, \Gamma_{\lambda n}^s(\omega_{Re}) = \int_0^\infty R_{\lambda n}(\tau) \sin(\omega_{Re} \tau) d\tau, \quad (22)$$

$$\Gamma_{\mu n}^c(\omega_{Re}) = \int_0^\infty R_{\mu n}(\tau) \cos(\omega_{Re} \tau) d\tau, \Gamma_{\mu n}^s(\omega_{Re}) = \int_0^\infty R_{\mu n}(\tau) \sin(\omega_{Re} \tau) d\tau,$$

Bu yerda R_n va R_{n+1} – sferik jismning ichki va tashqi radiuslari, $\bar{\lambda}_n$ va $\bar{\mu}_n$ – qovushqoq-elastiklik koeffitsiyentlari bo'lib, “muzlatish” usulini qo'llagandan so'ng ular quyidagi ko'rinishni egallaydi:

bunda $\lambda_{0n}\mu_{0n}R_{\lambda n}, R_{\mu n}$ – oniy elastiklik modullari va relaksatsiya yadrolari, ω_{Re} – haqiqiy kattalik. Misol sifatida $n=1$ bo'lganda (22) tenglamaning yechimini keltiramiz:


$$\begin{aligned} u_1(r, \omega) &= (C_1 + C_2) \frac{\chi}{r} \left[-\chi \cos(\chi r) + \frac{1}{r} \sin(\chi r) \right] + \\ &+ i(C_1 - C_2) \frac{\chi}{r} \left[-\chi \cos(\chi r) - \frac{1}{r} \sin(\chi r) \right]; \end{aligned} \quad (23)$$

$$\begin{aligned} \sigma_r(r, \omega) &= (C_1 + C_2) \frac{\chi}{r} \left[(4\bar{\mu}_1 \chi / r) \cos(\chi r) - (4\bar{\mu}_1 / r^2 - \chi^2 (\bar{\lambda}_1 + 2\bar{\mu}_1)) \sin(\chi r) \right] + \\ &+ i(C_1 - C_2) \frac{\chi}{r} \left[(4\bar{\mu}_1 \chi / r) \sin(\chi r) + (4\bar{\mu}_1 / r^2 - \chi^2 (\bar{\lambda}_1 + 2\bar{\mu}_1)) \cos(\chi r) \right]. \end{aligned} \quad (24)$$

Bu yerda $\chi = \sqrt{\frac{\rho \omega^2}{(\lambda_{01} + 2\mu_{01}) - \Gamma_{\lambda \mu}}}$, $\Gamma_{\lambda \mu} = [(\lambda_{01} \Gamma_{\lambda}^c(\omega_{Re}) + 2\mu_{01} \Gamma_{\mu}^c(\omega_{Re})) + i(\lambda_{01} \Gamma_{\lambda}^s(\omega_{Re}) + 2\mu_{01} \Gamma_{\mu}^s(\omega_{Re}))]$.

Ixtiyoriy o'zgaraslarni topish uchun chegaraviy shartlardan foydalansak, quyidagi chastota tenglamasini olamiz:

$$\begin{aligned} &\cos(\chi(R_2 - R_1)) \left\{ \frac{4\bar{\mu}_1 \chi}{R_1} \left(\frac{4\bar{\mu}_1}{R_2^2} - \rho \omega^2 \right) - \frac{4\bar{\mu}_1 \chi}{R_2} \left(\frac{4\bar{\mu}_1}{R_1^2} - \rho \omega^2 \right) \right\} + \\ &+ \sin(\chi(R_2 - R_1)) \left\{ \frac{(4\bar{\mu}_1 \chi)^2}{R_1 R_2} + \left(\frac{4\bar{\mu}_1}{R_1^2} - \rho \omega^2 \right) \left(\frac{4\bar{\mu}_1}{R_2^2} - \rho \omega^2 \right) \right\} = 0. \end{aligned} \quad (25)$$



3-rasm. Kompleks chastota relaksatsiya yadrosining amplitudaga bog'liq o'zgarishi:


Sonli natijalar va tahlillar kompleks parametrli chastota tenglamasini Myuller usuli bilan yechish orqali olindi. Materialning qovushqoq elastiklik xossasi Koltunov-Rjanitsinning uch parametrli kuchsiz singulyar yadrosidan foydalanib olindi:

$$R_{\lambda 1} = R_{\mu 1} = A_1 e^{-\beta_1 t} / t^{1-\alpha_1}, \quad A = 0.048; \quad \beta = 0.05;$$

$\alpha = 0.10; \rho = 1.0; \lambda_0 = 25.5; \mu_0 = 25.5; R_1 = 0.75, R_2 = 1.0.$ Sonli natijalar 3,4,5 va 6-rasmlarda keltirilgan. 1. $\omega_{Re} \alpha = 0.9$; 2. $\omega_{Re} \alpha = 0.5$;

3. $\omega_{Re} \alpha = 0.1$; 4. $\omega_{Im} \alpha = 0.5$; 5. $\omega_{Im} \alpha = 0.9$; 6. $\omega_{Im} \alpha = 0.1$;

Kompleks chastotaning relaksatsiya yadrosi amplitudasiga bog'liq o'zgarishi α parametrning turli qiymatlari uchun 3-rasmda keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, chastotaning haqiqiy qismi (erkin tebranishlar chastotasi) relaksatsiya yadrosi amplitudasiga bog'liqligi 3 % bo'lishi topildi. Mavhum qismining o'zgarishi esa chiziqli funksiyaga yaqin bo'lgan qonuniyat bilan o'zgarishi topildi.



4- rasmda kompleks chastota haqiqiy va mavhum qismlarining sfera tashqi radiusi r_2 ga bog'liq o'zgarishi keltirilgan.

Kompleks chastota haqiqiy va mavhum qismining tashqi radiusi r_2 ga bog'liq o'zgarishi: ω_{Re} – tutash chiziq, ω_{Im} – punktir chiziq.

Hisoblash tajribasida qovushqoq-elastiklik materialdan tayyorlangan turli xil sharsimon qobiqlarning so'nuvchi tebranishlarida ($\beta = 0.05$) A va α parametrning


ta'siri o'rganildi. Qobiqning tashqi va ichki radiuslarining ta'siri o'rganilib, baholandi. Natijalarni tahlil qilish bizga quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi:

- kompleks chastotaning haqiqiy qismi $\alpha = 0.87$ uchun A parametriga bog'liq bo'lishi 3 % bo'lishi va elastik sferik jism erkin tebranishlari chastotasi bilan juda yaqin bo'lishi topildi. Bundan amplitudaning katta qiymatlarida chastotaning haqiqiy qismi juda kam miqdorda pasayishni boshlaydi;

